XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING QARORI

2023 - yil 27 - yanvar VI-86-13-2-42-K/23 Buxoro shahar hokimligi

Buxoro shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbaalarini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27- va 126-moddalariga asosan shahar hokimligining Buxoro shahri mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalarini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buxoro shahar hokimligining Buxoro shahri mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalarini ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Buxoro shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyev, shahar hokimligi moliya bo‘limi (J.Aminov) bilan birgalikda:

mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun shahar hokimi farmoyishlari loyihalarini tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida shahar mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalari ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni shahar mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3. Buxoro shahar g‘aznachilik bo‘limi (A.Haydarov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Berdiyev) hamda shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyev zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **J.Matniyazov**

Xalq deputatlari Buxoro shahar
Kengashining
2023 yil 27 yanvardagi
VI-86-13-2-42-K/23-son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori

mln.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Ajratiladigan qo‘shimcha mablag‘lar manbasi
1	Buxoro shahridagi 108 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni sunnat to‘yi bilan bog‘liq xarajatlar	**195,1**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojatnomasi davomida Buxoro shahar faollarining ovqatlanish bilan bog‘liq xarajatlari	**82,6**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
3	Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining bo‘sh o‘rinlarga deputatlik saylovlari uchun o‘tkazilgan o‘quv trening davomida ovqatlanish xarajatlari	**45,3**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
4	Shahar hokimligining kirish qismida qo‘riqlash xizmati xarajatlari	**200,0**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
5	Buxoro viloyat Milliy gvardiyasi tashabbusi bilan "Madaniy markaz (Boqiy Buxoro)" majmuasiga hamda Favvoralar maydoni xavfsizlikni ta’minlash maqsadida o‘rnatilgan kuzatuv kameralari bilan bog‘liq xarajatlar	**120,0**	Obodonlashtirish boshqarmasi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
6	Buxoro shahrida o‘tkazilgan bayram tadbirlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklar	**100,0**	Shahar madaniyat bo‘limi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
7	Buxoro shahrining I.Karimov ko‘chasi (Gor-gaz svetafor) oldini landshaft dizayn asosida bezash xarajatlari	**46,5**	Obodonlashtirish boshqarmasi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
8	Buxoro shahar sektor rahbarlariga biriktirilgan xizmat uylarini isitish tizimini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar	**55,4**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari

9	Buxoro shahar hokimligi ma’muriy binodan foydalanish DUK korxonasiga shahar hokimligining kommunal to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlari	**200,0**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
10	Yangi yil bayrami munosabati bilan Buxoro shahar markaziy ko‘chalarini illimunatsion bezaklar bilan bezash ishlari bilan bog‘liq xarajatlar	**216,0**	Obodonlashtirish boshqarmasi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
11	Ijtimoiy soha muassasalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash xarajatlari	**1000,0**	Ijtimoiy soha muasasalari	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
12	Hokimiyat, Moliya bo‘limi, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi kotibiyati oylik ustamalari va Xalq qabulxonasi (Oziq ovqat puli) 3 oylik	**688,5**	Shahar hokimligi, moliya bo‘limi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
13	XDShKga saylov o'tkazuvchi Buxoro shahar saylov komissiyasining xarajatlari uchun	**109,0**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
14	Shahar hokimligi uchun quyosh panellari sotib olish va o‘rnatish	**138,0**	Shahar hokimligi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
15	Buxoro shahar Tibbiyot birlashmasi uchun kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida generator xarid qilish xarajatlari	**100,0**	Tibbiyot birlashmasi	2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari
	JAMI	**3296,4**		